



НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:1

BOSHLANG'ICH TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA FINLANDIYA TAJRIBALARINING SAMARADORLIGI

Yuldashova G.K

Nukus DPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi

Tayanch tushunchalar: boshlang'ich ta'lim, ta'limning samaradorligi, xorijiy tajribalar, darsliklar.

Bugungi kunda yoshlarga samarali ta'lim berish uchun xorijiy tajribalarni o'rghanish davr talabi hisoblanadi. Maktab ta'limimi bo'yicha ilg'or davlatlar tajribasini o'rghanish, xususan Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari hamda muvaffaqiyatlarini o'rghanish, ayniqsa ta'lim sifatini oshirish makkablardagi o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqatgina yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bunda aynan Finlandiya misol qilib ko'rsatilgani bejizga emas. Ushbu mamlakat ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlardagi o'z muvaffaqiyatlari bilan ajralib turadi. Finlandiya o'quvchilari ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotdagi barcha yo'nalishlarda savodxonlik ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishib kelmoqda.

Ma'lumot o'rnida, Finlandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida Finlandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan: o'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish, jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish hamda butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasidagi tenglikni ta'minlash. Hozirgi ta'lim tizimining ba'zi asosiy xususiyatlari 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarda o'qituvchilar ta'limidagi islohatlar bilan bog'liq. Ulardan biri "milliylashtirilgan, standartlashtirilgan " testlarni bekor qilish edi. "Fin maktablari o'quvchilar muvaffaqiyatini aniqlash uchun standartlashtirilgan testlardan foydalanmaydi.

Buning uchta asosiy sababi bor. Birinchidan, baholash amaliyoti milliy o'quv dasturida yaxshi asoslangan bo'lsada, ta'lim siyosati maktablar faoliyatining muhim qismi sifatida individual ta'lim va ijodkorlikka yuqori ustuvorlik berdi. Shuning uchun har bir o'quvchining maktabdagagi muvaffaqiyati statistik ko'rsatkichlardan ko'proq uning individual rivojlanishi va qobiliyatiga qarab baholanadi. Ikkinchidan, ta'limni ishlab chiquvchilar o'quv dasturlari, o'qitish va maktablarda test o'tkazish emas, balki o'qituvchilarning amaliyotini kuchaytirish kerakligini ta'kidlaydi.

Finlandiya maktablarida o'quvchilarni baholash o'quvchilarni ta'lim jarayoniga kiritilgan bo'lib, butun o'quv yili davomida pedagoglar va o'quvchilar faoliyatini yaxshiliash uchun qo'llanadi. Uchinchidan, mamlakatda o'quvchilarning akademik



НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:1

ko'rsatkichini aniqlashga tashqi baholovchilarning emas, mактабning mas'uliyati sifatida qaraladi.

Dars jarayonlariga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, darsda bolalar parta va stolda o'tirishi shart emas, polda(gilamda) o'tirishi mumkin. Ba'zi maktablarda sinflar divan va kreslolar bilan jihozlangan. " Doska oldida " o'qitish usuli qo'llanmaydi, bolalar materialni so'zlab berish uchun doska oldiga chaqirilmaydi. O'qituvchi darsga umumiylus beradi, so'ngra o'quvchilar orasida yurib, ularga vazifalarni bajarishga yordam beradi va jarayonni nazorat qiladi. Daftarga qalam bilan yozish va qancha xohlasa, shuncha o'chirish mumkin. O'qituvchi ham vazifani qalamda tekshiradi. Eng asosiysi uy vazifalari kamdan-kam beriladi. Bolalar dam olishlari kerak. Ota-onalar bolalar bilan dars qilishga majbur emas, buning o'rниga pedagoglar muzey, o'rmon yoki suzish havzasiga oilaviy borishni tavsiya qiladi. Iliq havoda darslar ko'pincha ochiq havoda mактаб oldida, maysalar ustida yoki maxsus jihozlangan qatorlarda o'tkaziladi. Tanaffus vaqtida kichik mактаб o'quvchilari albatta ko'chaga olib chiqiladi.

Demak, mamlakatimiz ta'lrimiz tizimidagi muammolarni bartaraf etish uchun ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lrim sifatini baholash tizimini takomillashtirish, o'qituvchilarga ishonchni orttirish, pedagoglarning o'z ishiga mas'uliyatini oshirish juda muhim.

Mana shunday bir qator tajribalarga asoslanib, joriy yil 1-yanvardan respublikamiz bo'yicha 14 ta hududdan tanlab olingan mакtablар, shu jumladan, Farg'ona shahridagi 33-umumta'lum mакtabi boshlang'ich sinflarida Finlandiya ta'lrim tajribasi joriy qilindi. Bunda mahalliy byudjet hisobidan 1 milliard 115 million so'm mablag' ajratilib, ushbu maskanning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, 2 ta multimedia xonasi tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichi sifatida mazkur mакtabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari Toshkent shahrida tashkil etilgan maxsus malaka oshirish kurslarini tamomlab qaytdi.

Kelgusi yili Buxoro, Samarqand, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida malaka oshirish bo'yicha masofadan o'qitish tashkil etiladi. Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagog kadrlar malakasini oshirishda respublikada yetakchi oliygoҳ qilib belgilanadi. O'qituvchilar toifasini belgilash tartibini ham tubdan o'zgartirish ko'zda tutilmoqda.

Finlandiya tajribasi usulidagi darsliklar bolani kreativ fikrashga, muammoli vaziyatlardan o'z harakati bilan chiqib ketishga o'rgatadi. Hozirgi metodikada o'qituvchi darsda ko'proq ishlasa, yangi darsliklarda bolalar ko'proq ishlaydi. Shuningdek yangi metoddan bitta mavzu hamma fanlarda o'ziga xos tarzda o'tiladi.



НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:1

Masalan, tabiatshunoslik fanida dengiz suvi haqida mavzu bo'lsa, ona tili, matematika fanida ham dengiz suvi haqida mashq va misollar beriladi.

Bundan tashqari hozirgi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chop etilgan darsliklar hajmi jihatidan katta bo'lib, uni bola qiynalib ko'taradi. Endigi yangi darsliklar har choraklik uchun alohida, mashq daftarlari bilan birgalikda kichik hajmda chop etiladi.

Finlandiyada darsliklar Sanoma Pro, Otava yoki edita kabi ko'plab nashriyotlar tomonidan ishlab chiqiladi. Nashriyotlar odatda o'z mahsulotlari namunalarini maktablarga yuboradi, shuningdek, pedagoglarni bozorda mavjud mahsulotlar bilan tanishib, o'z tanlovini amalga oshirish uchun yangi darsliklarning taqdimotlariga taklif qiladi. Harid qilingan darsliklar masalasidagi hal qiluvchi qaror mакtab direktori va munisipalitetlar rahbariyati tomonidan qabul qilinadi. Maktablar darsliklarni o'quvchilarga bepul taqdim etadi va kelgusi avlod o'quvchilari ham ushbu darsliklardan foydalana olishlari uchun ehtiyojkorlik bilan foydalanishni so'raydi. Tadqiqotlarning qayd etishicha, darsliklar umumta'lim maktabida hal qiluvchi rolni o'ynaydi va aksariyat o'qituvchilar uchun "o'quv dasturining ekvivalenti" ga aylanadi.

Prezident administratsiyasida bo'lib o'tgan yig'ilish va XTBning brifingi haqidagi xabarlarga ko'ra, 2023 yil yanvar oyidan boshlab 1-4-sinf o'quvchilari uchun "Finlandyaning vakolatli organlarining sifat belgisi bilan qayd etilgan " darsliklar oprobatsiya qilish rejlashtirilgani, katta sinflar uchun esa aniq va tabiiy fanlar bo'yicha darsliklar tayyorlash maqsadida Sanoma pro va Otava nashriyotlari bilan maslahatlashuvlar olib borilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712 сон "Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш туғрисида"ги Фармони. QMMB: 06/19/5712/3034-сон 29.04.2019 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси олий таълими тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ – 5847 – сон Фармони // Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887 – сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони. QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022-у.